



TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA SAMARALI BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISHDA BUHGALTERIYA HISOBİ AXBOROT TA'MINOTINING ROLI

Xujayev Salimjon Sodikovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0006-3673-2379

salimbekpaxlavon@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada temir yo'l transporti korxonalarini faoliyatida hisob siyosatini qo'llashning ahamiyati tadqiq qilingan hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: temir yo'l transporti, hisob siyosati, korxonalar faoliyati, buxgalteriya hisobi, moliyaviy boshqaruv, hisobot.

РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В ПРИНЯТИИ ЭФФЕКТИВНЫХ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА

Ходжаев Салимжон Содикович

Ташкентский государственный

экономический университет

Аннотация. В данной статье изучено значение применения учетной политики в деятельности предприятий железнодорожного транспорта и разработаны предложения и рекомендации.

Ключевые слова: железнодорожный транспорт, учетная политика, деятельность предприятия, бухгалтерский учет, финансовый менеджмент, отчетность.

THE ROLE OF ACCOUNTING INFORMATION SUPPORT IN MAKING EFFECTIVE MANAGEMENT DECISIONS AT RAILWAY TRANSPORT ENTERPRISES

Khojaev Salimjon Sodikovich

Tashkent State University of Economics

Annotation. This article examines the importance of applying accounting policies in the activities of railway transport enterprises and develops proposals and recommendations.

Keywords: railway transport, accounting policy, enterprise activity, accounting, financial management, reporting.

Kirish.

Temir yo'l transporti korxonalarini bozor tamoyillari asosida faoliyatini tashkil qilishda raqobatbardoshlikni oshirish, moliyaviy barqarorlik va xo'jalik yurituvchi sub'ektning ishonchli faoliyat yuritishini yo'lga qo'yish kabilar birinchi o'ringa chiqadi. Bugungi kunda jahon xo'jaligida kuzatilayotgan iqtisodiy tebranishlar sharoitida temir yo'l transporti korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bu -resurs tejankor texnologiyalarni joriy qilish, korxonada xodimlari mehnatini rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish, transport mahsulotlari talabning o'zgarishiga tezkor moslashish kabilar orqali xarajatlarni qisqartirishdir. Ushbu masalalarni samarali hal qilish xarajatlarni boshqarish nuqtai nazaridan qaror qabul qilish tezligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Xarajatlarni boshqarish - bu xo'jalik yurituvchi subyektlar boshqaruv hisobi tizimining ajralmas qismi, uni korxonada boshqaruviga integratsiyalashuvining eng muhim yo'nalishi hisoblanadi. Shu munosabat bilan, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatida operatsiyalarni real vaqt rejimida kuzatish va o'zgarishlarga javob berishga imkon beradigan boshqaruv hisobi va xarajatlarni tahlil qilish tizimini ishlab chiqish va joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Temir yo'l tarmog'ini tuzilmaviy jihatdan isloh qilish yuqori sifatli buxgalteriya hisobi va tahliliy ta'minotga asoslanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Transport tashkilotlarida uzoq muddatli rejalashtirish va moliyaviy nazoratni samarali tashkil etish uchun buxgalteriya hisobi axborot ta'minoti dolzarbdir. Buxgalteriya ma'lumotlari asosida tashkilotlar kelgusidagi faoliyat yo'nalishlarini belgilash, xatarlarni kamaytirish va bozor raqobatbardoshligini saqlash maqsadida strategik qarorlar qabul qiladi. Xalqaro va milliy buxgalteriya standartlariga mos keluvchi axborotlar rahbariyat uchun ishonchli tahlil vositasi sifatida xizmat qiladi (IFAC, 2020).

Transport tashkilotlarida samarali boshqaruv qarorlarni qabul qilishda buxgalteriya hisobi axborot ta'minotining roli to'g'risida quyidagi bir qator iqtisodchi olimlar o'z tadqiqotlarida quyidagicha fikrlarni bildirib o'tishgan.

Safarovning (2020) fikricha, transport tashkilotlarida buxgalteriya hisobi axborot ta'minoti tashkilotning moliyaviy holatini aniqlash va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asosiy omil hisoblanadi. Uning fikricha, buxgalteriya hisobi orqali taqdim etilgan aniq va to'liq axborotlar transport tashkilotlarida resurslarni oqilona taqsimlash va moliyaviy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Abdullayevning (2020) fikricha, transport tashkilotlarida buxgalteriya hisobi axborot ta'minoti asosiy moliyaviy ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va rahbariyatga taqdim etish orqali moliyaviy resurslarni boshqarish va samarali qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborotni ta'minlaydi. Bu ma'lumotlar tashkilotning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda va xatarlarni minimallashtirishda katta ahamiyatga ega.

Xolmuminovning (2021) ta'kidlashicha, buxgalteriya hisobi axborot ta'minoti transport tashkilotlarida moliyaviy nazoratni ta'minlash va qaror qabul qilish jarayonida muhim o'rin tutadi. U, ayniqsa, xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya hisobi yuritish orqali tashkilotlar o'z moliyaviy ma'lumotlarining ishonchliligini ta'minlashlari va xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni oshirishlari mumkinligini ta'kidlaydi.

Horngren, Sundem va Elliott (2016) kabi olimlarning fikricha, buxgalteriya hisobi axborotlari tashkilotning moliyaviy holatini to'g'ri baholash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Buxgalteriya hisobi orqali taqdim etilgan ma'lumotlar asosida rahbariyat resurslarni taqsimlash, investitsiyalarni boshqarish va kelajakdagi rivojlanish rejaları bo'yicha strategik qarorlar qabul qilishi mumkin. Ular buxgalteriya ma'lumotlari asosida moliyaviy oqimlar va xarajatlarni optimallashtirishga urg'u beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Temir yo'l transporti korxonalarida samarali boshqaruv qarorlarni qabul qilishda buxgalteriya hisobi axborot ta'minoti masalalariga bag'ishlangan mazkur maqolani tayyorlashda ilmiy bilishning induksiya va deduksiya, analiz va sintez, guruhlash, o'zaro qiyoslash, xulosalash kabi usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Boshqaruv hisobi keng miqyosda boshqaruv xodimlarini rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish uchun foydalaniladigan ma'lumotlar bilan ta'min etuvchi tizim sifatida qaraladi. Bu o'z navbatida tegishli uslubiy ta'minotni shakllantirishni ko'zda tutadi. Islohotlarni rivojlantirishning hozirgi bosqichida boshqaruv hisobini belgilash vazifalaridan biri ayrim faoliyat xarajatlarini hisoblashda shaffoflikni ta'min etuvchi alohida xarajatlar hisobini joriy etishdan iboratdir, bu esa o'z navbatida temir yo'l korxonalarini mahsulotlariga narx belgilash borasida boshqaruv qarorlarini qabul qilish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va yangi texnologiyalarga sarmoya kiritish uchun zarurdir.


Boshqaruv hisobida ishlab chiqarilgan ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar ularni samarali boshqarishni tashkil etish uchun muhimdir. Xarajatlarni hisobga olish va tahlil qilishni takomillashtirish temir yo'l transportining iqtisodiy faoliyati uchun muhim bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda bozor shakllari va boshqaruv usullarining rivojlanishi uning ishtirokchilarining iqtisodiy manfaatlarini hisobga olish, moliyaviy nazorat va boshqaruv hisobining milliy buxgalteriya tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida kun tartibiga qo'yadi. Yangicha iqtisodiy munosabatlarning yo'lga qo'yilishi buxgalteriya hisobini rivojlantirishda ustuvor boshqaruv yo'nalishini belgilab bergani holda, barcha boshqaruv funktsiyalari, shu jumladan buxgalteriya hisob funktsiyasini qayta ko'rib chiqishga undaydi. Umumiy tizimning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan temir yo'l transportining boshqaruv hisobi va tahliliy tizimi operatsiyalarni bitta jarayonga birlashtirishda moliyaviy va boshqaruv ma'lumotlari, ushbu jarayonning uzluksizligi va uning natijalaridan boshqaruv qarorlarini qabul qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanishga asoslangan. Temir yo'l transporti korxonalarini tadqiq qilish natijasida boshqaruv hisobi va tahlil tizimi, aslida, axborot tizimi ekanligi oydinlashadi. Temir yo'l transporti korxonalarida boshqaruv hisobi va tahlil tizimi real vaqt rejimida mikro va makro darajada boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun foydalaniluvchi barcha turdagi ma'lumotlarni, faoliyat turlari, yaxlitlangan ish turlari bo'yicha to'plash, qayta ishlash va baholash natijasida shakllangan avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimidir.

Temir yo'l korxonalarida boshqaruv axborot-tahlil tizimini shakllantirish va uni takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan operatsion xarajatlarni boshqarish samaradorligini oshirish masalalari alohida ahamiyatga ega. Temir yo'l korxonalarining yuk va yo'lovchi hajmini oshirish istagi va barcha turdagi resurslar narxlarining muttasil o'sishi boshqaruvning barcha darajalarida xarajatlarni me'yorlash va boshqarish tizimini takomillashtirishni talab qiladi. Temir yo'l transporti korxonalarining buxgalteriya hisobi va tahliliy tizimi o'zaro bog'liq unsurlar: buxgalteriya hisobi, tahliliy va nazorat quyi tizimlari modellaridan tashkil topadi, ularning har biri moliyaviy, boshqaruv va soliq tashkil etuvchilari bilan tavsiflanadi.

Yuqoridagi olimlarning qarashlarini inobatga olgan holda, fikrimizcha, transport tashkilotlarida buxgalteriya hisobi axborot ta'minoti buxgalteriya jarayonida yaratilgan moliyaviy va iqtisodiy ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va rahbariyatga taqdim etishni nazarda tutadi.

Transport tashkilotlarida buxgalteriya hisobi axborot ta'minoti quyidagi 5 ta asosiy unsurlar tashkil etadi (1-rasm).



1-rasm. Transport tashkilotlarida buxgalteriya hisobi axborot ta'minoti
(Xasanov, 2024)

Ushbu ma'lumotlar transport tashkilotlarining samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish, moliyaviy holatini tahlil qilish, resurslarni boshqarish va kelgusidagi rivojlanish strategiyasini belgilash uchun asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Quyida buxgalteriya hisobi axborot ta'minotining har bir elementiga alohida to'xtalib o'tamiz.

Moliyaviy hisobotlar bu – tashkilotning moliyaviy holatini, daromad va xarajatlarini, aktiv va majburiyatlarini aks ettiruvchi hisobotlar bo'lib, ularni asosiy qaror qabul qiluvchilar uchun taqdim etadi.

Soliq va statistik hisobotlar soliqqa tortish va davlat nazorati uchun zarur bo'lib, tashkilotning soliqqa oid majburiyatlari va moliyaviy faoliyati to'g'risida to'liq axborot beradi.

Xarajatlar hisoboti bu – transport xizmatlarini ko'rsatishda yo'naltirilgan xarajatlar haqida ma'lumotlar, jumladan, yoqilg'i xarajatlari, texnik xizmat ko'rsatish, ishchi kuchi bilan bog'liq xarajatlar va boshqa omillar kiritiladi.

Pul oqimlari hisobi bu – tashkilotning pul oqimlari bilan bog'liq ma'lumotlar, ya'ni kirim va chiqimlar haqida aniq axborot beradi, bu esa moliyaviy likvidlikni saqlashga yordam beradi.

Byudjet va rejalashtirish hisobi bu – tashkilotning kelajakdagi xarajatlarini rejalashtirish va moliyaviy natijalarni prognoz qilish uchun kerak bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etadi.

Bu axborotlar rahbariyatga aniq va to'liq qarorlar qabul qilishda yordam beradi, xususan, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, xarajatlarni optimallashtirish va investitsiyalarni jalb qilish masalalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Temir yo'l transporti korxonasini samarali boshqarish uchun xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyatiga ishlab chiqarish faoliyatini nazorat qilish va ushbu faoliyat natijalari bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish hal qiluvchi shartdir. Korxonaning axborot maydoni tashkiliy boshqaruv tuzilmasi tizimi - funktsiyalar ierarxiyasi yoki biznes-jarayonlar majmuini aks ettiradi

Temir yo'l korxonasining tavsifi axborot tashkiliy tuzilmasini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu o'z navbatida hujjat aylanish samaradorligini oshirish; javobgarlik markazlarini aniqlash va ushbu javobgarlikni hisobga olish uchun axborot oqimlarini shakllantirish; byudjetni tuzish, ularni ijrochilarga etkazish; teskari aloqa va byudjet ijrosi ustidan nazoratni ta'min etuvchi axborot oqimlarini tashkil etish uchun muhimdir. Temir yo'l korxonasini tavsiflashda ma'lum bir texnologik jarayonning samarali ishlashiga xizmat qiluvchi asosiy omil sanaluvchi tashqi foydalanuvchilar bilan aloqa va munosabatlar aniqlashtiriladi; miqdoriy ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda xarajatlarni me'yorlash borasidagi bo'shliqlarga oydinlik kiritiladi.

Hozirgi vaqtda har bir korxonaning axborot sohasida uchta hisob quyi tizimi mavjud. Ularning har biri o'z foydalanuvchilarining axborot ehtiyojlarini qondiradi: moliyaviy hisob - aktsiyadorlar, investorlar, kredit tashkilotlari, sheriklar; soliq hisobi - Davlat soliq xizmati;

boshqaruv hisobi - rahbar va boshqaruvchilar. Barcha quyi tizimlar bitta korxonada doirasida mavjud bo'lgani holda uning moliyaviy holatini yaxshilashga hissa qo'shadi va har bir quyi tizim samaradorligi boshqaruv sifatiga bog'liq.

Temir yo'l korxonasida boshqaruv hisobining muhim bo'g'ini hisob siyosatini ishlab chiqishdir. Boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta'minlashda balans ko'rsatkichlari, hisobot va soliq deklaratsiyalaridan foydalanganda ma'lum bir korxonaga ma'lumot berishda buxgalterning o'rnini katta. Temir yo'l korxonalarini axborot bilan ta'minlash mexanizmi buxgalteriya siyosatida uchta quyi tizim bilan ifodalanadi: 1) moliyaviy hisob; 2) soliq hisobi; 3) boshqaruv hisobi. Zaxiralarni baholash variantlarini, xarajatlarni hisoblash usullarini tanlash temir yo'l korxonasi pul oqimi, foyda miqdori va moliyaviy holatiga ta'sir qiladi. Boshqaruv balansini tuzish metodologiyasi, xarajatlarni taqsimlash va qayta taqsimlash usullarini tanlash; byudjetlashtirish va monitoring jarayonlari temir yo'l korxonasi va uning bo'linmalarini strategik va taktik boshqarish uchun yana bir axborot oqimiga ega bo'lishga imkon beradi. Alohida quyi tizimlarni o'z ichiga olgan hisob tizimi temir yo'l korxonasi axborot sohasida muhim o'rin tutadi. Hisob tizimi buxgalteriya hisobi, soliq, statistik va operatsion buxgalteriya hisobini o'z ichiga olgan korxonaning butun hisob faoliyatini ifodalaydi.

Amalda, har qanday tashkilot rahbari narx, korxonada xarajatlari, hajmi va tuzilishi, sotish kabilar borasida turli xil boshqaruv qarorlarini qabul qilishiga to'g'ri keladi, bunday qarorlarning natijalari korxonaning moliyaviy natijalariga ta'sir qiladi. Boshqaruv samaradorligi, birinchi navbatda, o'z vaqtida va asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Bunday qarorlarning ikki turi mavjud: bevosita boshqaruv qarorlari; ijro qarorlari (ijroni ta'minlash bo'yicha tezkor echimlar).

Korxonani boshqarish samaradorligi har bir boshqaruv bosqichining maksimal samaradorligiga bog'liq, ya'ni har bitta boshqaruv funktsiyalari: rejalashtirish, hisob, tahlil, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularning bajarilishini nazorat qilishning natijaviyligini ta'minlash talab etiladi. Ushbu yondashuv korxonada faoliyatini boshqarish usullarini ishlab chiqishda va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda axborot ta'minoti talablarini aniqlashda hisobga olinishi lozim.

Xulosa va takliflar.

Doimiy o'zgaruvchan ichki va tashqi iqtisodiy muhitda temir yo'l transporti bo'linmalari faoliyatini samarali tashkil etishning boshqaruv mexanizmini ishlab chiqish vazifalari iqtisodiy potentsialdan samarali foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlarning yaxlit tizimi sifatida transport xizmatlari xarajatlari va natijalarini boshqarishni belgilab beradi, xarajatlar tarkibini maqbullashtirish va xarajatlar shakllanishining turli bosqichlarida ularni qisqartirishni ko'zda tutadi.

Qaror qabul qilishda hisob axborotlarini shakllantirish quyidagi ketma-ketlikni ko'zda tutadi: 1) mas'ul shaxsdan topshiriqni olish; 2) mas'ul shaxs tomonidan kerakli ma'lumotlarning hajmi va shaklini taqdim etish muddatlarini belgilash; 3) korxonada hisob bo'linmalari tomonidan kelishilgan axborot hajmi borasida ma'lumotlarni yig'ish, guruhlash va taqdim etish. Hozirgi vaqtda har bir korxonaning axborot sohasida uchta quyi hisob tizimi mavjud. Ularning har biri o'z foydalanuvchilarining ehtiyojlarini qondiradi: moliyaviy - aktsiyadorlar, investorlar, kredit tashkilotlari, sheriklar; soliq hisobi-davlat soliq idoralari; boshqaruv hisobi- rahbariyat.

Xulosa qilib aytganda, transport tashkilotlarida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda buxgalteriya hisoboti axborot ta'minoti hal qiluvchi ahamiyatga ega. Buxgalteriya hisobotlarining to'g'ri va aniq shakllantirilishi rahbariyatga tashkilotning moliyaviy holati, aktivlari va xarajatlari to'g'risida aniq ma'lumotlar taqdim etadi. Bu ma'lumotlar asosida transport tashkilotlari rahbarlari iqtisodiy samaradorlikni oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan strategik qarorlar qabul qilish imkoniga ega bo'ladi.

Shuningdek, buxgalteriya hisoboti orqali to'plangan axborotlar transport tashkilotlarida moliyaviy tahlilni o'tkazishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu ma'lumotlar asosida rahbariyat moliyaviy oqimlarni boshqarish, xarajatlarni optimallashtirish va daromadlarni oshirish bo'yicha aniq qarorlar qabul qiladi. Shunday qilib, buxgalteriya hisobi axborotlari rahbariyat uchun ishonchli vosita bo'lib, tashkilotning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Abdullayev, A. R. (2020). Transport tashkilotlarida buxgalteriya hisoboti va moliyaviy boshqaruv. Toshkent: Iqtisodiyot va Moliya nashriyoti.

Horngrén, C. T., Sundem, G. L., and Elliott, J. A. (2016). Introduction to Financial Accounting. Pearson Education.

IFAC (International Federation of Accountants). (2020). Handbook of International Financial Reporting Standards (IFRS). <https://www.ifac.org>.

Safarov, I. R. (2020). Moliyaviy boshqaruvda buxgalteriya hisobining o'rni. Toshkent: Moliya va Iqtisodiyot nashriyoti.

Xasanov B.A., Xashimov A.A., Muxametov A.B., Abduvoxidov A.A. (2024) Buxgalteriya hisobi, darslik – Sirdaryo: Ziyo nashr-matbaa, -568 b. 1-jild.

Xolmuminov, I. M. (2021). Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlash va transport sohasidagi ahamiyati. Toshkent: Moliya instituti nashriyoti.